

- To'lg'onoy, boyaqish To'lg'onoyim, mushtipar boshingga tushgan g'am-alamlar, sumbul sochlaringga kumush qirov tushirib ketgan o'sha kunlar emasmi? Esizgina o'rim-o'rim sochlar! Sen bu yerga kelganda har gal ham bongqacha qiyofada kelarding. G'am toshlari og'irlashgan sayin hamma qiyinchiliklarga bardosh berib, bag'ri-diling o'rtanib, jimgina kelib, jimgina ketsang ham, boshingga qanday mushkul kunlar tushganidan to'la ogoh edim.

- Ha, Ona-erim, gapirganda ilojim qancha. Yolg'iz mengina emas, urushning kasri tegmagan bitta ham oila, bironta ham odam qolmagan edi-ku.

Xuddi o'sha kezlarda brigadirlik qilib, elning achchiq-chuchugini birga totib, ko'pchilikni eplab, ko'z-quloq bo'lib yurganimdan hanuzgacha fahrlanaman, hozir ham o'sha kezlarni mamnuniyat bilan eslayman. Aks holda, ehtimol, men allaqachon bukchayib, holdan toyib, allaqachon urush to'polonlari ostida oyoq osti bo'lib ketar edim. Qilichini yalang'ochlab kelgan yovga qarshi zarba berishning yagona yo'li kurashda, mehnatda emasmi, axir?! Mana, qadrdon dalam, ish orasida ora-sira chopo kelib, yana jimgina ot jilovini qayta burib, indamasdan chopib ketishimning boisi ham shunda. Qosimdan xat kelgan kun esingdami, mehribonim?

- Bo'lmasam-chi, To'lg'onoy. Sen o'shanda adirda yerga go'ng solib yurgan kelining bilan kichik o'g'ling oldiga suyunchi olgani kelgan eding-a, To'lg'onoy!

- Suyunchi olmay bo'ladimi! Surunkasiga ikki oy davomida dom-daraksiz ketgan Qosimimdan sog'-salomatman deb xabar kel-sayu, men quvonmay kim quvonsin! Moskva ostonalarida bo'lgan keskin janglarga ikki bor kiriyb, ikkalasidan ham sog'-salomat chiqdim, nemislarning shashti qaytib to'xtab qoldi, bizning polkimiz hozir dam olyapti debdi. O'shanda kelinim Alimanning quvonganini aytmaysanmi! Qosimning jangga kirib ko'p qatori nemis bilan jang qilgani aniq ekan. Mening bolalarimdek yigitlar elni ko'riqlamas, kim qo'riqlaydi. Ishqilib boshi omon bo'lib, dushmani yengib, zafar quchib qaytsa bo'lgani. Boshqa hamma qiyinchiliklarga bardosh beramiz, mayli, it azobini tortsak ham ertaroq yengsak bo'lgani! Xudoyim, ertaroq yengsak edi, deb iltijo qilardim. Bu faqat meninggina xohishim emas, balki ko'pning tilagi, ulug' tilak bo'lgani uchun ham hammasiga ko'nar ekansan. Uyda yolg'iz qolgan kenjam, Jaynog'im, o'n sakkizga yetar-etmas askarga ketganda: "Mayli, boshga tushganni ko'z ko'rar!" "БТ" deb o'z zimmi-o'zim yupatdim.

Qishning oxirlariga borib Jaynoqning o'z tengqurlari qatori voenkomatga chaqira boshlaganda, ularni shunchaki bir askar sifatida mashq qildirib yurgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Uni askarga oladi degan xayol ham ko'nglimdan o'tmagan edi. Ikki marta rayonga borib, o'n kun chamasi o'ynab keldi, keyingi borishda esa oradan bir kun o'tib, ertasigayoq Jaynoq uyga qaytib keldi.

"Nima, senga javob berishdimi, tezda qaytib kelib qolding?" deb so'rasam: "Yo'q, ena, ertaga yana rayonga qaytib ketaman.

Voenkomat bir kun uyda bo'lishga ruxsat berdi",- dedi. Men bo'lsam o'shanda ham payqamabman. Jaynoq o'sha kuni uzoq safarga otlanayotganday, juda ko'p ishlarni bitirib qo'ydi. Ishdan birrov qaytib kelsam, qo'raning ichini supurib, olam-jahon o'tinni yorib qo'yibdi. Molxonani tozalab, tomning ustidagi pichanni qayta yoyib quritib, otasi ot boglab yuradigan oxurning buzilgan joylarini chaplayotgan ekan. "Voy, uni nima qilasan, bolam, yozda shu-valar", - desam, "Vaqt borida bitirib qo'ygan yaxshi, ena. Keyin qo'l tegmaydi",- dedi. So'ng bilsam, u bekorga unnab yurmagan ekan. Jaynog'im o'z ixtiyori bilan, komsomol chaqirig'iga javoban, urushga jo'nab ketayotgan ekan. Buni biz Jaynoq jo'nab ketgandan keyingina bilib (qoldik - stantsiyadan aravakash ovuldoshi orqali xat berib yuboribdi. Voy bechora bolam tushmagurey, to'g'risini aytib xayr-xo'shlab ketsang. yig'lab-siqtasam ham bir amallab tushunar edim-ku. Aliman ikkalamizga yo'llagan xatida "xayrlashmay ketganim uchun meni kechiringlar, sizlarni bir yo'la bilishsin dedim, askarga o'z ixtiyorim bilan ketishga lozim topdim", deb yozibdi. Mening bu ahdimga rozi bo'lmas deb o'yladimi umringdan baraka topkur yo aytishga og'zi bormadimi, qaydam. Bilishimcha, Jaynoq urushga ishqibozlik bilan ketgani yo'q, balki unga nafrat bilan qaragani sababli, urushning elga keltirgan ziyon-zahmatini qalbdan his qilgani, jonidan o'tgani uchun qo'lga qurol olib jangga kirdi. Otasi, ikki akasi elu xalq deb jang maydonida qon kechib yurganda, uning joni ularnikidan azizmidi, u ham or-nomusli yigit-ku. Ha, Jaynoq xuddi shuning uchun, urushni yomon ko'rgani uchun ketganiga ko'zim yetgan edi. Yolg'iz Jaynoq frontga borgani bilan dushmani qiyratib yubormaydi, albatta, biroq bunday deyish ham to'g'ri emas: Jaynoqqa o'xshaganlar o'nlab qo'shiladi, yuzlab, minglab qo'shiladi, shunday qilib, kuch to'planadi, shunday qilib, ko'l paydo bo'ladi, shunday qilib, tog' hosil bo'ladi! Jaynog'im, kenjatoyim, quvonchig'im, hazil-kashim, kuychim, suqsur bolam! Sen nima uchun aytmay ketganingni bilmadi deysanmi? Meni sen bolalik qilib, urushning nima ekanini, o'limning nima ekanini tushunmay ketaverdi, deb o'yladi deysanmi? Quvnoq tabiatini ko'rgan har qanday odam ham sening insonga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini tushunavermas edi. Ana shu insonparvarliging tufayli urush mashaqqatlarini chekayotgan ayollarning mushkul ahvoliga tek qarab turolmasding. Bu dunyoda odamdan yaxshilik qoladi. Oqibat, urush kechib, al-laqachon nom-nishonsiz qurbon bo'lding. Qirq to'rtinchi yilning qaysi bir qorong'u tunida partizanlarga yordamlashish uchun samolyotdan parashyutda sakrabsan-u, "parashyut desantidaman, nemislarning ichkarigi qismiga yorib kirib, uch bor jang qilib keldik", deb xabar qilganing bo'yi dom-daraksiz ketding. Dushman bilan kurashib, biron yerda o'qqa uchdingmi, yo to'qayzorlar orasida adashib qolib ketdingmi, yoki dushmanga asir tushdingmi, bilolmadim. Haytovur omon bo'lganingda hozirgacha biron xabar kelardi-ku, bolam. Sen juda erta xazon bo'lding, Jaynog'im, kenjatoyim, yosh ketganingdan el diydoringga ham to'ymagan edi. Hozir men seni eslaganimda bizni xafa bo'lmasin, deb aytmay ketganing doim ko'z o'ngimga keladi..

E, endi nimasini aytayin, urush kasofat qancha-qancha odamlarning yostig'ini quritdi, tilab olgan Jaynog'im omon bo'lganda qanday odam bo'lar edi! Bo'yi bastingdan, qiliqlarindan aylanayin, bolam, qaydasan, qaydasan? Un gulingdan bir guling ochilmasdan, qaelarga borib tig'ga uchding? Ey falak, oh, jon ato qilgan yer, bolamni bir zumgina, ko'z ochib-yumguncha tiriltirib, diydorini birgina ko'rsatib qo'ysang!..

- To'lg'onoy, sabr qil, o'zingni bos. Unday qilma, o'zingga rahm qil... Yuragingning har bir tepishini g'animat bil. Burchingni unutingmi?

- Yo'q, sirdosh dalam, unutganim yo'q. Unutmaganligim uchun huzuringga kelib turibman-da. Shu insoniy burch bo'lmasa, hanuzgacha tirik yurgan bo'larmidim, jonim qiltillab, yuragim allaqachon g'alvir bo'lgan-ku. Esingdami, ona yer, o'sha mudhish kunlar?

Boychechak ochilgan ko'klam kunlari dalaga endigina qo'sh chiqargan kezlari edi. Kun tegmagan kamarlarda qurt-qumursqalar hali karaxt uxlab yotgan bo'lsa ham, mayin shabada esib, yer selgib, kun sayin maysalar nish urib, yoz tashvishi boshlangan edi. Oh, yozni qo'msab, donning sepilishini orziqib kutayotgan dehqon dalam!

...Ovulga kiraverishda, ko'cha bo'ylab kelayotganimizda, uyimiz yonida g'ala-g'ovur bo'lib turgan olomoni ko'rganda ham yuragim shuv etmabdi. Qariyalardan biri menga yalt etib qaradi-yu, cho'chiganday: "Otdan tush, To'lg'onoy",- dedi. Men hayratlanib qarab turgan bo'lsam kerak, u kishi otidan tusha solib, meni qo'ltig'imdan oldi: "Tush, To'lg'onoy, tushishing kerak!" "БТ" deb takrorladi. Tilim kalimaga kelmay, butun vujudim junjikib, otdan tushdim. Bir vaqt qaragam, narigi yoqdan

Alimanni ergashtirib, uch-to'rt ayol qelayotgan ekan, Aliman o'sha kuni ariq tozalashda ishlayotgan edi. Uning ko'tarib kelayotgan ketmonini bir ayol yelkasidan shartta oldi. Shundagina hammasini tushundim: "Bu nima qilganlaring, voy sho'rim!" "B" deb ko'chani boshimga ko'tardim. Shu mahal Oysha qo'shnimning uyidan ayollar chiqa solib qo'llarimni mahkam ushlashdi: "Bardam bo'l, To'lg'onoy, Suvonqul bilan Qosimdan judo bo'ldik!" "B" deganda, Alimanning "Ena, enajonimey!" "B" deb chinqirganida to'planib turgan odamlarning hammasi: "Jigarimey! Jigarimey!" "B" deb o'kirib yig'layverishdi. Oh, la'nati urush, maqsading shumidi? O, qora kun, ko'rgilik shumidi? Mengina emas, ko'cha-ko'y, uylar, dov-daraxtlar chayqalib-depsinib, yer-ko'kni buzgan chinqiriq-o'kirikdan qulog'im tinib, garang odamday, hech narsani eshitmay, allaqanday bir mudhish sukunat ichida, go'yo tushdagidek, kishilarning yuzini bulut qoplab olgan singari, yo o'lik, yo tirik ekanligimni sezmay, orqamga qayrilgan qo'llarimni bo'shatib olishga harakat qilardim. Yonimda kim borligi, eshik yonida dod-voy solayotgan odamlar kimlar ekani bilan ishim yo'q, mening birgina aniq ko'rib turganim - Aliman. Betini, ko'ylagini yulib, sochlari to'zg'igan kelinim ham zor qaqshab, chinqirib, ikki yoqdan osilganlarga bo'yin bermay, u ham men tomon talpinardi.

Ajoyib azamatlar, tog' nurasa bo'lmasmidi, ko'l qurisa bo'lmasmidi! Suvonqul bilan Qosimim, ota-bola ikkovi ham qanday dehqon edi! Dunyoning tayanchi shunga o'xshash zahmatkashlar emaem.i: elni to'yg'izganlar ham o'shalar, yov kelganda qo'lga qurol olib, mam-lakatni qo'riqlab, qon to'kkanlar ham o'shalar. Agar urush bo'lmaganda, Suvonqul bilan Qosimim qanchadan-qancha odamlarga rizq-ro'z berib, mushkulini oson qilib, qancha ekin ekib, qancha xirmon ko'ta^rib, qancha ishni bajargan bo'lardi. Uzlari ham el mehnatidan bahramand bo'lib, dunyoning rohatini ko'rar edilar. Uylab qara-sang, qiziq, aylanayin ona-er, urush boshlanar ekan-u, u urushda odamzodning eng asil, qo'li gul azamatlari o'z ishini tashlab, bi-rining qonini biri to'kib, birini biri o'ldirishga safarbar bo'lishar ekan. Men bunga ko'nikmayman va umrbod ko'nikolmayman. Tabiat tomonidan yaratilgan eng oliy mavjudod - Odamzod, dun-yoni o'ziga bo'ysundirgan kim - odamzodmi, shunday ekan, kishilar bir-biriga bunchalik ziyon keltirmay, tinchtotuv yashasa bo'lmaydimi?! Sirdosh dalam, javob ber, ayt javobingni!

- Qiyin savol berding-ku, To'lg'onoy. Men bilganimdan beri, odam odam bo'lib yaratilgandan beri urushgani-urushgan. Ba'zan urushda mutlaqo qirilib, nom-nishonsiz ketgan ellar ham bo'lgan, kuli ko'kka sovurilib, tirik jon qolmay vayron qilingan shaharlar ham bo'lgan. Necha asrlar odamzod iziga zor bo'lib, bo'm-bo'sh yotgan vaqtlarim ham bo'lgan. Har gal urush chiqqanda gap uqqan-larga, urushmasalar-ing-chi, qon to'kkuncha aql ishlatsalar-ing bo'lmaydimi, deyman. Hozir ham aytadigan so'zim shu: "E odamlar, dunyoning to'rt burchagida yashayotgan odamlar, sizlarga nima kerak - yermi? Mana men yeraman, men barcha odam bolasiga yetaman, menga talashishlaringning keragi yo'q, menga inoqlik kerak! Mehnat kerak! Shudgorga bitta don tashlasalar-ing, yuz dona qilib beraman, xivchin sanchsalar-ing, chinor qilib beraman, bog' qilsalar-ing, meva tugib beraman, mol yoysalar-ing, pichan bo'lib beraman, uy qursalar-ing, devor bo'lib beraman, urug'-aymoqlar-ing ko'paysa, hammalar-ingga joy bo'lib beraman! Men tugamayman, men toraymayman, men konman, men hammalar-ingga baravar yetaman! Sen, To'lg'onoy, odam bolasi tinch yashay oladimi, yo'qmi, deysan. Uzing o'ylab ko'r-chi, bu menga emas, sizlarga bog'liq, odam bolasining o'ziga, sizlarning inoqliklaringga, xohishlaringga, aql-idroklaringga bog'liq... Meni urush zahmatini tortmaydi, deysanmi. Maydonda qurbon bo'lgan mehnatkashlarimning, sening Suvonqulingga, Qosimingga, Jaynog'ingga o'xshagan dehqonlarimning mehnatini sog'inaman, qo'msayman. Shudgor obi-tobida qilinmay, ekin vaqtida sug'orilmay, xirmon vaqtida ko'tarilmay turganda, men ularni: "Qelinglar, kuchini bilagiga to'plagan dehqonlarim, kelinglar, bolalarim, tezroq turib kelinglar, quvrab ketyapman!" "B" deb chaqiraman. Afsus, ketmonni ko'tarib, Suvonqul kelsa qani, afsus, kombaynini haydab, Qosim bug'doy o'rimiga kirsqa qani, afsus, xirmonga qizil alvon tortib, Jaynoq aravasini quvib kelsa qani!..

- O'lganlarning ketidan o'lib ketmas ekansan. Brigadir ekanman, belimni mahkam bog'lab, yana o'tlanib chiqdim, g'amxo'r dalam.

- To'lg'onoy, sen kelganda ikkalamiz ko'pni ko'rgan onalar singari bag'rimiz tutaqib, jimgina ko'rishdik, to'g'rimi?

- Ha, shunday qilmaoak bo'larmidi. Men yig'i-sig'i qilaversam, kelinim hayotdan battarroq bezmaydimi? Bilib turding-u, kuyoviga shunchalik kuygan juvonni umrimda ko'rgan emasman. Men ham erimdan, ham o'g'limdan judo bo'lib, ko'rgiligim undan oz emas edi, shunday bo'lsa ham mening yo'rig'im boshqa. Aliman bilan Qosim bo'lsa endigina qo'shilib, yoshlikning eng shirin paytida, sevgining eng qaynoq kezida, bolta bilan qiya chopilgan kabi ikkisi ikki tomonga qulab yiqildi. O'lgan-ku o'ldi ketdi, ammo Alimanning tirik yurishini demasa, tushungan kishiga, u ham o'lgan bilan barobar edi. Albatta, hali Aliman yosh, keyinchalik bora-bora balki o'z tengini topar. Alimanga o'xshash beva qolgan ko'pgina kelinlar urushdan keyin turmushga chiqib ketishdi. Ko'pchiligi baxti ochilib, hozirgi kunda bola-chaqali ona bo'lib qolishgan. O'shalar to'g'ri qildi. Biroq hamma birday emas ekan-da, ba'zi birovlar burungisini tez unutib, jon jarohati bitgach, tezda yangi yo'lga tushib olishadi. Sho'rlik Alimanning taqdiri unday bo'lmadi. U boshiga tushgan baxtsizlikka ko'nika olmay, birinchi baxtini hech unuta olmadi. Bunda mening ham katta aybim bor. Ha, shunga qolganda bo'shlik qildim. Bo'shlik deb ham bo'lmaydi, kelinimni ayab yurib, uning ichki siriga aralasha olmay qo'yganimni nima desam ekan, bo'shlikmi, yo undan ham yomon gunohmi.

Qirq uchinchi yil, qishning o'rtalari edimi yoki ko'klamning boshlari edimi, haytovur, sovuq bo'lib turgan edi. Tunning qaysi mahali edi, esimda yo'q, el tekis uxlab yotganda allakim derazani sindirguday bo'lib: "To'lg'onoy! Brigadir! Tur tezroq!

Uyg'on!" "B" deb qichqirdi. Hushimiz ketib, Aliman ikkimiz sakrab turdik. "Ena! Ena!" "B" dedi Aliman qandaydir bir quvonchli hodisani sezganday tovush bilan. Evoh, boumid inson, doim xayoldan ketmas narsa, shu mahalda, mening qalbidam ham: askarga ketganlardan biri kelib qolmadimikin degan vahimali va shirin bir his uyg'ongan edi. "Sen kimsan? Sen kimsan?" deya derazaga yugurdim. "Eshikka chiq, To'lg'onoy! Bo'l ertaroq! Saroydan ot o'g'irlandi!" "B" dedi kelgan kishi. Aliman chiroqni yoqquncha etigimni kiya solib ko'chaga chopib chiqdim. Ot saroyiga raislar ham yetib kelgan ekan. Saman yo'rg'a bilan birga (uni biz kolxozga topshirib yuborgan edik) aravaga qo'shadigan uch ot yo'q. Brigadamizning ko'klamgi yer haydashiga mo'ljallangan ajoyib otlar edi. Ot-boqar otlarga tungi yemish solayin, deb pichanxonaga ketganda o'g'ir-lab ketishibdi. Kelsa saroy qorong'i, chiroq o'chgan, shamol o'chirgan bo'lsa kerak, deb shoshmay yoqib qarasa, uch otning o'rni bo'sh. U paytlarda uchta ishchi otni yo'qotish kolxoz uchun hozirgi paytda o'nta traktorni yo'qotganday gap edi. Qolaversa, bu hodysa frontdagi soldatlarning har biridan bir burdadan nonini tortib olgan bilan baravar emasmi...

Ovuldan to'p-to'p bo'lishib chiqib, turli tomonga qarab qidirishib ketdik. Bir vaqt adashib ketibman. Kolxozning zotdor ayg'ir otini minib olgan edim, jonivor, qamchi tekkizmay olib uchib, katta yo'ldan o'tib, tog' tarafga yo'l olganimni bilaman, orqamdan ham odamlar kelayotgan edi, boshqa tomonga urib ketishganmi, ulardan uzoqlashib ketganimni anchadan keyin bilib qoldim...

Otlarni kim va qanday qilib o'g'irladi ekan? Shunday paytda elning uvolidan hazar qilmagan odamlar kimlar ekan? O'g'rilar jarlikdagi to'qayzorda bekinib yotishgan bo'lmasin, deb soyga tu-shib qaradim, hech narsa ko'rinmasdi, faqat bir tulki lip etib to'qayzor ichidan chiqa qochdi-da, oy nurida ko'kimtir tovlanib, jarlik bo'ylab kumush dumini sudrab g'izillab keta boshladi.

Ovulga qaytdim. Jarlik bo'ylab kelar ekanman, Jekshenqul degan kimsa askardan qochib kelgan emish, yonida ikkita o'rtog'i ham

bor, Sariq-yoyiqdagi qozoqlardan emish, degan mish-mish gaplar yodimga tushdi. Ammo, men bu mish-mishlarga uncha ishonmagan edim. Odamlar urushda o't kechib, jang qilib yurgan bo'lsa-yu, qanday qilib bular bunda shum boshini olib qochib, bekinib yursin? Bu qan-day pastkashlik: "Sen o'lsang o'laver, men qolsam bo'lgani, deganimi? Shu ham insongarchilikmi? БҲ” deb o'ylab kelardim. - Ovulda har kimning siri, odati aniq ma'lum. Unda bu qadar pastkashlik-ka boradigan hech kim yo'q edi. Bir yo'la uch yilqini osh qilib yuborish hazil gapmi! Ug'ri chetdan kelgan. Boyagiday chetlab, o'zini olib qochib, tog'-toshni oralab yurganlargina bu ishni uddalay olishi mumkin, degan qarorga keldim. Jekshenquillarning askardan qochib yurgani chin bo'lsa, hoynahoy o'shalarning ishidir bu, degan gumonga bordim... Bu ish ko'klamda sodir bo'lgan edi.

To'g'risini aytсам, kolxozning kundalik tashvishlari bilan ovbra bo'lib, bu voqea yoddan ham ko'tarilgan ekan. Uch ot bir plugning kuchi, lekin iloj qancha, g'unon-sunonlarni eplab qo'lga o'rgatib, brigadaning pluglarini bir amallab ishga soldik. Shundan keyin qo'sh ishlari ham shu darajada qizib ketdiki, o'g'ri u yoqda tursin, xudoni ham unutilib yuboradigan kunlar keldi. Hayotimdagi eng mashaqqatli ko'klam o'shanda bo'lgan edi. El nima qilsin, el ishlasak deydi, lekiya ochlikdan sillasi qurib ketmon ko'tara olmaydiganlar ham bo'ldi. Ilgarigiday kuch-quvvat yo'q, bir kunlik ish haftaga cho'zilib ketardi. Buning ustiga kolxozda urug'lik ham yetishmasdi. Xampaning bor-yo'g'ini sidirib, har bir donni bittalab terib olib, brigada planini bazo'r bajardik.

O'sha kunlarda xalqning ahvolini ko'rib juda kayfim uchdi. Mehnat kuniga hech narsa olmasa, yeyishga noni bo'lmasa, nima, elni qirib yuboramizmi? Kelgusi ko'klamda bundan besh battar ocharchilikka duchor bo'lamiz-ku. Yo'q, bu holda yashash mumkin emas, qaiday qilib bo'lsa ham bir yo'lini topish kerak, degan qarorga keldim. Tog' etagida bekor yotgan qo'riq yerlar bor edi, o'shani haydatib, urug' septirmoqchi bo'ldim. Raisga maslahat soldim, raykomgacha bordim, tushuntirdim: buni biz plandan tashqari, o'z kuchimiz bilan, elning mehnat haqiga mo'ljallab ekamiz, dedim.

Xullas, oxiri rozi bo'lishdi. Biroq gap boshqa yoqda - sepishga urug' yo'q edi. Kolxozning xampasida don degandan irimiga qolmagan-ku, uni qaerdan olaman. Boshim qotib, oxiri elni yig'ib maslahat soldim, hamma gapni, bor maqsadimni aytdim: "Qani, xaloyiq, kengashib kesgan barmoq og'rimas deganlar. Nima qilamiz? Kelgusi ko'klamda ham shunday gezarib o'tiramizmi yo bir harakatimizni qilamizmi? Mana bu ekilganlardan umid qilmaylik, yashirishning nima keragi bor, uning bari, urug'ligidan boshqasi, frontniki, urushda yurgan askarning rizqi. Agar urug'lik topsak, plandan tashqari yer haydab ekin ekish niyatimiz bor. Uning hosilini mehnat haqiga, qari-qartang, yetim-esirlarga bo'lib beramiz. Menga ishonsalaring, hamma javobgarlikni o'z bo'ynimga olaman. Gapning po'stkallasi shuki, yeb o'tirgan, tishlaringda saqlab yurgan don-dunlaringni beringlar. Yerga sepaylik. Mayli hozir yemasak-emaylik, sabr qilaylik, sut-qatiq ichib bo'lsa-da, bir amallab pishiqchilikka yetib olarmiz. O'zlaring uchun, bola-chaqalaring uchun mardlik ko'rsatinglar, aylanaylar, yo'q demanglar, chaynab turganlaring bo'lsa ham beringlar, vaqt o'tmasdan urug'ni sepib olaylik". Odamlar yig'ilishda xo'p deyishgani bilan ishga o'tganda qiyin bo'ldi. Ayniqsa ko'p bolali onalar xuddi o'lmay turib qo'lidan hech narsa bermaydiganday g'ijinib, urushni ham, turmushni ham, kolxozni ham qarq'ab-siqtab, yashirib yurgan bug'doyi bormi, arpasi bormi, bor bisotini ayamay topshirishdi. Arava bilan ko'chama-ko'cha yurib, birovga yaxshi, birovga yomon gapirib, hatto ba'zan aytishib ham qolib, oldi yarim pud bug'doy, keti bir piyoladan suli bersa ham qaytarmay yig'ib yurdim. Mayli, bir siqim don ham foyda, kuzda o'sha bir siqim dondan bir pud hosil olsak, hozirgining o'rnini qoplaydi-ku degan o'ydaman. Aks holda, bunchalik qilmagan bo'lardim, albatta. Shunday bo'lsa ham, o'shanda nima uchun bunchalik qattiqqo'llik qilgan ekanman-a? Hammani bir ko'zda ko'rib, hech kimni ham ayaganim yo'q. Ba'zi birlarini qo'lidan tortib olgan-day bo'ldim. Bechora qo'shnim Ayshaning o'shandagi holatini sira unutmayman. Kuyovidan erta ayrilib (Jamonboy urushdan burun qazo qilgan edi), g'am chekib yurib, Aysha kasalmand bo'lib qolgak edi. Sal tuzalganda kolxozda mehnat qilib, tptpgpgiyap ishlab, yolg'iz o'g'li Bektoshni eplab jatta qildi. "El qatori beradiganingni bergin, Aysha", - degan edim, БҲ””Bori-budimiz shu", - deb to'r-vachani ko'rsatdi. БҲ””Shuni bo'lsa ham bergin. Urug'likka yer tayyor, sepmoqchimiz", - desam, Aysha yalinib-yolvordidi: "Uzing ko'rib turibsan-ku, men bunday nimjon bo'lsam, oxiratli qo'shnimsan-ku..." Ko'ngilchanligim tutib bo'shshib ketdim, biroq shu zahotiyog ko'ngilchanlikni yig'ishtirib qo'ydim. - Men hozir qo'shning emasman! - deb qattiq gapirdim: "Men brigadirman, ko'pchilik nomidan shu doningni olib ketaman!" БҲ””dedim-da, o'rnimdan turib, to'rvachani qo'limga oldim. Aysha indamay, teskari qaradi... Olti-etti kilo bug'doy ekan. To'rvasi bilan olib ketaverayin dedim-u, yana ko'nglim bo'lmay, yarmini katta tovoqqa to'kdim: "Menga qara, Aysha, faqat yarmini oldim, xafa bo'lmagin!" БҲ””dedim. Aysha men tomon qaraganda ko'zidan oqayotgan yosh tomchilari betiga sizilib tushayotgan ekan. Ushanda tashlab ketaversam bo'lmaydimi. Bunday bo'lishini kim bilibdi, to'rvachani ushlagan bo'yimcha uydan chopib chiqdim. Odamni bunday qiynagandan ko'ra, e, qurib ketsin! Nega, nega shunday qildim ekan. Hozir eslasam, o'sha qilmishlarimni sira kechirolmayman.

- Yo'q, To'lg'onoy, sening bunda hech qanday gunohing yo'q. Sen elga yaxshilik qilayin degan eding, o'rinni ish bo'lgan edi. - Ha, aylanayin dehqon dalam, sen bariga guvohsan: niyatim xolis edi. Agar o'shanda ovuldagilar yopirilib, urib o'ldirishsa ham rozi edim. Bilasan-ku, ikkita katta qop urug'lik don to'plandi. Uni biz g'alvirda elab, tozalab, dala boshiga o'zim chiqarib qo'ydim. Usha kuni sabr qilsam ham bo'lar ekan. Haydaladigan bir oz yer qolgan edi. Men ertasi barvaqt turib, urug'ni yerga o'zim sochsam, deb o'ylagan edim. Urug' tayyor, yer tayyor, deyarli hamma ish ko'ngildagidek borayotgan edi. Kechga tomon uyga kelib nimagadir uymalanib yurib, tinib-tinchimadim. Kunduzi Bektosh bilan yana bir bolaga boronalarni aravaga solib, dalaga olib borib tashlanglar, deb tayinlangan edim. "Bola, bolaning ishi chala" deganlariday, ular aytganimni ko'ngildagiday bajardimi, yo'qmi, deb ishonolmay Alimanga aytdim: "Men qo'shchilar tomonga borib kelayin, tezda kelaman", - deb otlanib jo'nab ketdim. Ovuldan o'taverib, otni yo'rtirib haydadim. Qosh qorayib, ham-ma yoqni zulmat qoplab olayotgan edi, qo'shning boshiga yetmay shudgorda omochga qo'shilgan ho'kizlar o'z holicha yuribdi, yonida hech kim yo'q. Nega shu mahalgacha ho'kizlarni qo'shdan chiqarmadi ekan deb qo'shchi boladan achchiqlandim. U juvonmarg qaerlarda yurib-di ekan, deganimcha bo'lmay, yo'l bo'yida mollari bilan ag'darilib yotgan aravani ko'rib yuragim qinidan chiqib ketdi. Aravaning yonida hech kim yo'q. "Hoy bolalar! Qayoqda yuribsizlar, qaerdasizlar? Kim bor bunda?" БҲ””deb qichqirdim. Qimirlagan jon yo'q, hech kim javob bermadi. Bu nimasi, bular sog'ga o'xshamaydi-ku, deb olachivda chopib bordim. Otdln sakrab tushib, gugurt chaqib kirib kelsam, Bektosh, o'rtog'i, qo'shchi bola uchalasi qo'llari bog'langan holda yerda yotishib, kiyimlari titilib, bosh-ko'zlari qonga belanib, og'izlariga latta tiqilgan. Bektoshning og'zidan lattasini yulib olib: БҲ””Urug' qani?" БҲ””dedim. "Olib ketishdi! Urub olib ketishdi!" БҲ””deb o'g'rilar ketgan tomonni boshi bilan irg'ab ko'rsata boshladi. Usha yerda qanday bo'lganini bilmayman, otga irg'ib minib quvishga tushdim. Umrin bino bo'lib bunaqa ot choptirmagan bo'lsam kerak. Ko'p o'tmay, oldinda o'g'rilarning qorasi ko'rinib, otlarning taqalari toshga urilib eshitila boshladi. Ular uchta ekan. Otga qoplarni o'ngarib, toqqa betlab urib ketishyapti. БҲ””To'xta! Urug'likni tashlanglar! Tashlanglar urug'likni! Tashla, deyman!" БҲ””deb qamchi bosib kela boshladim. Oramiz tobora qisqaraverdi. Ular qoplarni ortib olgani uchun qattiq chopib ketisha olmadi, lekin urug'ni ham tashlashmadi. Qaysi biridir o'rtada yo'rg'a minib borayotibdi. Ilgarigi sinchkovligim emasmi, orqasidan tanidim, yurishidan, orqa ola tuyog'idan tanidim - bizning

saman yo'rg'a ekan. Qishda otlarni o'g'irlab ketganlar ham shular emasmikin? "To'xta! Men tanidim senlarni, men, tanidim seni, Jekshenqul! Sen Jekshenqulsan! Endi qo'limdan qutulmaysan, to'xta!" "B" deb hayqirib kelayotsam, chindan ham u Jekshenqul ekan, yo'rg'aning boshini bura solib, qorong'ida otdan lip etib tushdi. Miltiqning og'zidan yaraqlab chiqqan o't ko'zlarimni qamashtirib yubordi, gumburlab ketgan tovushdan otim munkib ketib, ustidan do'ppiday uchib tushdim. Yiqilayotib, bu otilgan miltiq ekanligini, o'q yelkamga tekkanini sezdim. Undan boshqasi menga qorong'u edi.

Bir vaqt hushimga kelib ko'zimni ochsam, tevarak-atrofim jim-jitlik, chalqancha tushib yotgan ekanman, butun vujudim o'zimmiki emasday zirqirib og'rirdi, qimirlashga darmonim yo'q. Yoningamda o'q yegan ot goh pishqirib, goh tepinib, oyoq silkib, jon talvasasida yotibdi. U shu ahvolda bir oz pishqirib, qiynalib yotdi-da, keyin qimirlamay cho'zilib qoldi. U bilan birga butun hayot to'xtab qolganday tuyuldi. Sukunatli tun qo'ynida yolg'iz bir o'zim...

Men anchagacha shu ahvolda yotdim. Bir vaqt kimdir birovning oyoq tovushi eshitildi. "To'lg'on opa! To'lg'on opa-a-a-a!" "B" degan bolaning yig'lamsiragan tovushini tanidim.- Bektosh. Izlab yurgan bo'lsa kerak. Boshimni arang ko'tarib: "Bektosh, beri kel",- deb chaqirdim. Asil odam-da, otasining bolasi, yonimga yetib kelib: "To'lg'on opa, sog'-salomatmisiz, To'lg'on opa?" "B" deb boshimda yig'lay boshladi. "Sog'-salomatman, belim sal turg'azmay turibdi, tuzalib qolsa kerak",- desam, "Bu hech nima emas, sog'ayib ketasiz, To'lg'on opa",- deb juda suqshdi, narigi yoqda izlab yurgan o'rtoqlariga: "Bolalar, beri kelinglar. To'lg'on opam bu yerda ekanlar, omon-eson ekanlar!" "B" deb qichqirdi. "Endi opangga nima deb javob beramiz?",- desam, Bektosh bir oz indamay turib: "Javobini men o'zim beraman, To'lg'on opa. Elning bariga javobini o'zimiz beramiz, To'lg'on opa. Hech nima emas",- dedi-yu, bola-da, o'shanda o'n to'rt-o'n besh yoshlik chog'lari, izza bo'lganiga chiday olmay yig'lab yubordi. U mushtlarini qisib, joyidan irg'ib turdi va tog' tomonga qarab qo'l siltab gapirdi: "Biz baribir o'lmaymiz. Ko'rsanlar-ku, men ham ulg'ayib yetilarman, bu qilmishlaringni hech qachon unutmayman!" "B" dedi. Uning shu mardona so'zi uchun ko'nglim yumshab yig'ladim. Shunday qilsam: "Yig'lamang, To'lg'on opa, men ham sizning bolangizman, men ham ulg'ayaman, Qosim akamning o'rnini bildirmayman",- deb qo'ltig'imdan suyab, o'rnimdan turg'izdi.

Bolalar meni aravaga solib, uyga keltirib qo'yishdi. Ikki-uch kun og'rib, ko'rpa-yostiq qilib yotdim. Ovuldagilarning birontasi qolmay, ko'ngil so'rab kelib-ketib turishdi. Elga rahmat, roziman, o'shanda hech kim hech nima degani yo'q menga. Shunday bo'lsa ham, niyatim amalga oshmay qolganidan qattiq koyindim. Haydab qo'yilgan shudgorning tobi qochib ketib, urug' sepilmay, o'g'rilarga yem bo'lib ketganini eslaganim sari yuragim achishib yurdi.

- Gaping to'g'ri, To'lg'onoy. Sengina emas, men ham sezdim buni. O'sha - ekilmay qolgan shudgor mening tanimda bitmay qolgan yaraday bo'lib, o'rni ko'p vaqtgacha bilinib yurdi. Shudgorga urug' sepilmasa, mening eng katta jarohatim shu, To'lg'onoy. Urushning aybi bilan qancha urug' sepilmay, qancha odamlarning umri xazon bo'ldi. Mening eng yomon ko'rganim urush boshlaganlar, ular urug' ham sepishmaydi.

- To'g'ri aytasan, urush bilan dehqonchilik bir-biriga zid,

- Urushgan odam ekin ekmaydi.

Eshik oldidagi bahaybat keksa olma o'sha yili qiyg'os gullab, yana kuchga to'lib yasharganday, shamol tekkanda butoqlaridan op-poq gullar to'kilib yotdi. Olma gullagan kezda havo ham zumrad bo'loqday tiniq va musaffo edi. Olisdagi yiltillagan qorli tog' cho'qqilari ham ko'rinib turardi. Shunday o'tirganimda ko'chadan pochtachi Temir chol kirib keldi. "Horma, To'lg'onoy",- deb anchagacha so'zlay olmay, shoshilib o'zicha negadir shumshayib, yengil yo'talib, "shamollab qolibman-ku, qurg'ur", deb so'zlanib, menga xat bor ekanligini aytib, sumkasini axtarib, xatni berdi. Uning bu sekin imillashidan diqqat bo'lib: "Tezroq aytmaysanmi zoriqtirmay!" "B" "Kimdan ekan?" "B" desam, "Maysalbekdan chog'i",- dedi. Suyunib, yuragim hovliqqanidan, hamisha Maysalbekning xatlari uchburchak bo'lardi, bu safar bosma bilan bosilgan to'rtburchak, sirti qalin atlas qog'oz ekaniga ham e'tibor bermabman. Shu payt yarador oyog'ini sudrab, oqsoqlanib, qo'ltiq-tayoq bilan Bektursin kelib qoldi. U qo'shnimiz edi, zerikkanda biznikiga kelib gurunglashib ketardi. "B" "Xat kelgan shekilli, ho, Maysalbekdan-ku",- deb sabrsizlik bilan ko'rishdi.- "Qo'ling nega qaltiraydi? Beriroq o'tirib o'qib ber-chi",- dedim. Shunday desam, kiygizning chetiga o'tirayotib, "voy oyog'im" deb og'riqsinib, rangi ko'karib terlab ketdi o'zi ham. Xatni qo'li qaltirab arang ochdi-da, o'qiy boshladi. Oh, sho'rlik bolam, sho'r-lik xat...

- "Onajon, oq sutingdan aylanayin, onajonim,- deb boshlabdi xatini.- Men sening qanday odam ekanligingni bilmasam, bu xatni yozmas edim. Sening oqilaligingga, g'ayrat-shijoatingga, kuch-qudratingga ishonib shularni yozyapman. Shunday bo'lsa ham, nima deb tushuntirishga, nima deb aytishga so'z topolmay, oq qog'ozni qora qilib o'tirgan chog'im.

Oxir oqibat qilgan ishimni to'g'ri deb toparsan, men bunga o'zinga ishongandek ishonaman. Ha, ona, so'zsiz meni haq dersan. Shunday bo'lsa-da, tushunsang ham, yuragingning bir chetida menga aytilmagan bir savoling qolar: "Bolam, qanday qilib o'z umringni o'zing xazon qilding? Odamga bir martagina nasib bo'ladigan bu yorug' dunyo bilan o'zing vidolashib ketaverdingmi? Men seni nimaga tug'ib, nimaga o'stirdim? Ha, ona, sen onasan. Sening bu savolingga tarix keyin javob berar. Bu endi mening aytganlarim, urushni biz tilab olganimiz yo'q, bu ko'pning boshiga kelgan mushkul ish, butkul inson bolasiga bolta urgan zulm bo'ldi. Biz u bilan kurashmay qololmaymiz, uning uchun qon to'kib, uning uchun jon berib, uni butunlay daf qilishga safarbarmiz. Shunday qilmasak, bizning odam degan nomimiz o'chadi.

Mana endi maktabda o'quvchi yoshlarga mening birinchi va eng oxirgi sabog'im shu, ularga berib ketgan bilimim ham shu. Bunga men hayotdan olgan hamma bilimimni, borliq dilimni qo'shdim.

Bir soatdan keyin men Vatanim topshirgan ishga borib, qaytib kelmayman, dushman to'dasiga borib, uni qiyratib, o'zim ham yo'q bo'laman. Vatan uchun, xalq uchun, g'alaba uchun, dunyodagi barcha ezguliklar uchun...

Bu mening so'nggi xatim, so'nggi qalam tebratishim, so'nggi so'zim. Ona, ming bir ikki marta ona desam ham qadringga yeta olarmidim, tushungin: bu jo'ngina o'lib berish emas, bu osongina jondan kechish emas, bu umr surishning eng tengsiz turi. Balki quloqqa qayta-qayta uqilsa ham, bu yashash uchun bo'lgan o'lim. Men hozir shuni o'z ixtiyorim bilan tanladim. Mening hech qanday tap tortadigan yerim yo'q. Vatanim bu ishni menga ishonib topshirgani uchun faholanaman.

Meni yo'qlama, ona. Meni nishona qoldirib ketmadi, dema. Dunyoda bundan keyin urush bo'lmasa, yangi ko'z ochgan bolaning ingalagani - O'sha men, bo'y yetgan qizlarning javdiragan ko'zla-ri - O'sha men, nihollardan ko'kargan kurtak - O'sha men, dalada unib chiqqan ekin - O'sha men, muallimning bolalarga birinchi o'rgatgan "a" harfi "B" o'sha men, o'shaning bari men, o'shaning bari meni men deb bilib yurgin, ona!

Yig'lama, ona, hech kim yig'lamasin. Bunday o'lim uchun hech kim yig'lamasin. Alvido, manguликka xayr, alvido!.. Alvido,

This is not registered version of TotalDocConverter

cho'qqirningdagi yulduz, O'zbekiston
Sening muallim o'g'ling - leytenant Maysalbek Suvonqulov.
Front. 1943 y. 9 mart. Tungi soat 12".

Mixlangan boshimni zo'rg'a ko'tarib qaragam, hovlida el to'planib turibdi. Bari birday indamay, boshlarini quyi solib, aza tutib turishgan ekan, hech kim tovush chiqarib yig'lagani yo'q. Maysalbek hech kim yig'lamasin degan-ku. Ayollar meni qo'ltig'imdan suyab bazo'r turg'izishdi. Gullagan olmaga shamol tegib, butoqlaridan uchgan oppoq gullari yuz-ko'zimga urilib, yumshoqqina qo'l tekkanday silab o'tardi. Usha gullagan olmaning narigi yog'i ovulning ustki tomoni, olisdagi tog'ning tepasi, uchi-cheki yo'q - miltillagan musaffo osmon. Dunyoning bunchalik keng ekanini ko'rib, olamning bunchalik tor ekanini sezganimda, hamma yoqni buzib, bo'zlab, hayqirib yig'lagim keldi. Biroq, bunga erk bermay, lablarimni mahkam tishlab turdim. Aliman boyadan beri, qanday turganini bilmayman, men uyda turganimda ikki qo'lini yozib, ko'r kishidek meni ko'zlab timirskilanib kelaverdi-da, birdaniga yuzlarini qo'li bilan berkitib, teskari burilib ketdi.

Mana shunday qilib, o'rtancha o'g'lim Maysalbekdan ham ajraldim. Tashlab ketgan qalpog'i qoldi.

- Menda esa Maysalbekning tuprog'i degan nom qoldi, To'lg'onoy. Xalqqa qilgan ishi, dong'i qoldi.

- Ha, Maysalbekning nomi o'chgani yo'q. Botir degan nomini ardoqlab, qishlog'imiz "Maysalbek" nomidagi kolxoz bo'ldi. Frontdagilar Maysalbekning yozib ketgan xatiga o'zlarining xatlarini qo'shib, selsovetga yuborishgan ekan. U xatda Maysalbekning jangchi o'rtoqlari uning ko'rsatgan mardligi haqida yozib, barimizning ko'nglimizni ko'tarib, sizning o'g'lingizni, jigarbandingizni hech qachon unutmaymiz, Vatanimiz u bilan faholanadi, deyishibdi. Keyin bilsam, Maysalbegim razvedkachi ekan. Bizning askarlar hujumga o'tish oldidan nemislarning pistirmada to'plagan qurol-yarog', o'q-dorilari bir kechada o't olib, atrofdagi to'qaylar yopirilib yonib, frontdagi jangchilarimizga katta yo'l ochilibdi. Shu ishni qilgan mening o'g'lim Maysalbek bo'libdi. Men ham uning bu ishidan faholanaman. Odam bolasiga eng avvalo obro' kerak. Urushda ko'rsatilgan botirlikning zo'r jasorat ekanligiga shubham yo'q. Buning uchun bosh egib, o'g'limga ta'zim qilaman. Lekin tirik yurganiga nima yetsin, bu men uchun armon bo'lib qoldi...